



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

### O'QUVCHILARGA TILSHUNOSLIK DARSLARI JARAYONIDA PEEL STRATEGIYASIDAN FOYDALANIB INTERFAOL DARSLAR TASHKIL QILISH

O'ZDJTU, 2-ingliz tili fakulteti talabasi

Suvanova Oydin

*Ushbu maqolada ta'lrim muassasalarida yashkil qilinayotgan tilshunoslik darslarida turli insho, matnlar va boshqa ilmiy majmualarni PEEL strategiyasidan foydalangan holda to'g'ri va mantiqiy yozish usullarini hamda ushbu strategiyani izohlab beradi.*

**Kalit so'zlar:** PEEL, point, evidence-dalil, explanation-tushuntirish, link-bog'lash

Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida deyarli har bir talaba uchun qiyinchilik tug'diradigan jihatlaridan biri bu- to'g'ri, mantiqiy bog'langan va izchil yozish ko'nikmalarni shakllantira olish hamda ularni rivojlantira olishdir. Uning uchun eng samarali hamda qulay usullardan biri PEEL strategiyasidir. Ushbu metodning har bir harfi yozish jarayonining muhim bosqichlarini anglatib ushbu ketma-ketlikda bajarishni talab etadi:

Dastlabki komponent bu P-Point ya'ni asosiy fikrni bayon qilish bo'lib, ushbu strategiyaning eng muhim qismi sanalari. Bu qism essay, inshoning boshida aniq hamda mantiqiy fikr masalan tezisni ifodalaydi, o'quvchilarga maqolani matnni ochib beruvchi, tushuntiruvchi gap yoki gaplar birikmasi vazifasini bajaradi. Shu bilan birgalikda, ushbu qismda anqlik va lo'ndalik bo'lishi zarur aynan mana shu jihatlari ham uning kaliti vazifasini bajaradi. Misol qilib oladigan bo'lsak, dunyodagi iqlim o'zgarishi mavzusidagi essay varianti uchun dastli qism quyidagidan iborat bo'ladi:

Iqlim o'zgarishi –bu global muammo bo'lib, uning oqibatlari atro-muhit, inson salomatli hamda iqtisodiyotga ham ta'sir salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ko'rib turganimizdek, ushbu fikr aniq bo'lib, paragrafning markazi sifatida xizmat qiladi shuningdek, ushbu qismni turli qo'shimcha fikrlar hamda ma'lumotlar bilan boyitish mumkin ammo buni asosiy qismdagi komponentlarga aralashtirmaslik va miqdorini oshirvormaslik zarur sababi qisqa fikrlar asosiy g'oyani aniq va bevosita bayon etishga yordam bersa, uzun va murakkab fikrlar o'quvchini chalg'itishi yoki yozma matnning tuzilishini buzishi mumkin. Agar yozuvchi asosiy g'oyani haddan tashqari batafsil bayon qilishda o'zi bilmagan holda biror xatoga yo'l qo'ysa yoki qo'shimcha fikr kiritish maqsadida detallar kirlitsa nafaqat o'zining balki o'quvchining ham e'tiborini asosiy mazmundan chalg'itishi mumkin yoki qisqa fikrlar matnni tartibli qilgani kabi, boshqa dalil, tushuntirishlar, bog'lashlar asosiy qismni tushuntirishga xalal berishi mumkin. Shu tufayli "Point" qismini yozishda ko'proq e'tibor va diqqat talab etiladi.

Keyingi komponent esa E-Evidence ya'ni dalillar orqali fikrni izohlash, isbotlar keltirish. Ushbu qismda asosiy fikrni qo'llab- quvvatlovchi isbot, dalillar keltiriladi ular esa statistik



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

ma'lumotlardan, faktlar, tadqiqotlar yoki misollardan iborat bo'lishi mumkin hamda bularning barchasi fikrni kuchaytirish imkoniyatini ham yaratadi aynan shu tufayli dalillar ushbu qismning asosiy kalit vositasini o'taydi. Shuningdek, ushbu qismning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarni o'ziga ergashtira olish hamda ularning fikrlarini o'zgartirishdir bunday paytda esa faktlar va raqamlar qo'shish orqali essay o'quvchilari xulosaviy qismni taqqoslay olishadi. Evidence qismini yozishda e'tibor qaratilishi shart bo'lgan tomoni bu-asosiy fikrni tasdiqlovchi gap bilan boshlash zarur. Fakt yoki statistik ma'lumot keltirilgandan so'ng agar zarur bo'lsa ularni qisqacha tushuntirish ham mumkin ammo keraksiz batafsillikni oldini olish zarur ya'ni dalillarni haddan tashqari cho'zib yozish o'quvchini chalg'itadi, mantiqiy izchillikni yo'qotadi, chunki muhim va ahamiyatsiz ma'lumotlar aralashib ketadi, uzun hamda keraksiz fikrlar o'quvchini zeriktiradi yoki asosiy fikrni qabul qilishni ham qiyinlashtirib qo'yadi. Eng e'tiborli tomoni shundaki, keraksiz tafsilotlar asosiy faktning ta'sirini kamaytirib, o'quvchiga uning muhimligini anglashni uzoqlashtiradi.

Masalan:

1880-yildan hozirgi vaqtgacha o'rtacha global harorat sezilarli darajada oshdi, bu esa muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi va ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishiga olib keladi. O'zbekistonni oladigan bo'lsak ayni shu davr mobaynida o'rtacha yillik harorat  $1,6^{\circ}\text{C}$  ga oshdi ( $13,2^{\circ}\text{C}$  dan  $14,8^{\circ}\text{C}$  gacha), bu global o'rtacha ko'rsatkichlardan yuqoridir.

Ushbu qismdagi dalillar asossiz va subyektiv bo'lmashigi kerak chunki subyektiv dalillar essayni shaxsiy blog yoki fikr-mulohazaga aylantiradi bu essayning ilmiy va ishonchli bo'lishiha to'siq bo'lishi mumkin ammo obyektiv dalillar esa matnni ilmiy va akademik maqbullikka erishtiradi. Shu bilan birgalikda, subyektiv dalillar o'quvchini yozuvchi fikrini qabul qilishga majbur qilishi mumkin bunday holat xolislikni buzadi, obyektiv dalillar esa manbalarga asoslangani uchun o'quvchining fikrni o'zi tahlil qilishiga imkon beradi. Ushbu qismni yozishda statistikalarni qisqa, aniq va maqsadga muvofiq tarzda bayon qilish eng asosiy urg'uni talab qiladi.

E-Explanation ya'ni tushuntirish komponenti bo'lib, keltirilgan dalilning asosiy fikrga qanday aloqadorligini izohlash vazifasini bajaradi. Shuningdek, tushuntirish shunday bo'lakki, siz o'quvchiga eng ko'p ta'sir qila olasiz shu tufayli aniq qilib tushuntirish kerakki sizga yoki sizning dalillaringizga hech qanday shubha qolmasin. Yozish jarayonida dalilning ma'nosini ochib beradi, asosiy fikr bilan mantiqiy aloqani ko'rsatadi, asosiy fikrni qandayqo'llab-quvvatlashni izohlaydi biroq "explanation" yozishda dalillarni takrorlamaslik lozim balki uning ma'nosini tushuntiring chunki qisqa va aniq ifodalangan matn o'quvchu uchun qulayroq va osonroq tushuniladi, takrorlash mantiqiy izchillikni buzishini hisobga olib har bir jumla yangi ma'lumotni yoki yangi tahlilni taqdim qilishi, yangi ma'lumot hamda yangi nuqtai nazar qo'shilishi kerak. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, keltirilgan fikrni



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

qaytarish essayning ilmiy sifatini yo'qotishga olib keladi, yaxshi yozilgan matn aniq, mantiqiy va takrorlanmas bo'ladi. Akademik va ilmiy majmular to'liq tahlillarga hamda yangi ma'lumotlarga asoslanishi kerak.

Masalan:

Dunyodagi havo haroratining oshishi qurg'oqchilik, yozda issiq havoning uzoq saqlanib turishi va qishning qisqarishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Shu bilan birga Orolbo'yi hudularida havo haroratining ko'tarilishi ayniqsa sezilarli bo'lib, bu mintaqadagi ekologik vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda.

Kelajakda havo haroratining yana 1,5°C-3°C ga ko'tarilishi kutilmoqda, bu esa suv resurslarini taqchilligi va qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan kabi dalilni takrorlamaslik zarur, chunki bu matnning aniq va samarali bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchining diqqatini saqlaydi va essayning mantiqiy izchilligini oshiradi. Takrorlashdan ko'ra, dalillarni qisqa va aniq tahlil qilish, yangi ma'lumotlarni kiritish hamda asosiy keltirilgan fikrni mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

So'nggi komponent esa L-Link yani bog'lash asosiy fikrni (point) va dalillarni (evidence) matnning umumiy mavzusi yoki keyingi fikr bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Ushbu qism yaxshi yozilgan matnning izchilligini va mantiqiy tuzilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, ushbu qism fikrni yakunlash ya'ni dalil va tushuntirishni asosiy fikrlar bilan mantiqan bog'lab, o'quvchiga mazmun hamda mohiyatini xotima qilish imkonini beradi; mavzuga qaytish ya'ni asosiy mavzuni eslatib, fikrni kengroq nuqtai nazardan yoritishga yordam beradi; har bir paragrafni bir-biriga bog'lab, mantiqiy oqim yaratadi. Link yozishda esa bir necha muhim tomonlarni inobatga olish zarur: turli xil bog'lovchilar yordamida so'nggi paragrafni boshlang'ich fikr bilan yakunlash zarur, bu o'quvchiga barcha qismlar bir-biriga uzviy bog'liq ekanini tushunishga yordam beradi. Essayning mantiqiy izchilligini ta'minlash maqsadida bog'lanayotgan qismda keyingi mavzuga ya'ni dalillarga yo'naltirish, bu esa o'qiyotgan shaxsga matnni yaxlit tarzda qabul qilishga yordam beradi. Yana bir e'tiborli jihatni bu paragraph qisqa, aniq va mantiqiy bo'lishi kerak hamda boshqalari kabi keraksiz so'zlar, takroriy jumlalardan qochish darkor shundagina u mazmunli bo'ladi.

Masalan:

Shunday qilib, iqlim o'zgarishi nafaqat ekologik muammolarni kuchaytiradi, balki insoniyatning kelajagini xavf ostiga qo'yadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun davlatlar va jamoatchilik birdamlikda harakat qilishi kerak.

Ushbu fikrlarga boyitish maqsadida qo'shimcha tarzda bir necha jumlalar qo'shish mumkin ammo baribir, cho'zilib va asosiy g'oyadan chetlashish oldini olish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, PEEL strategiyasi yozuvchilik bilan bir qatorda tahliliy, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali usuldir. Ushbu strategiya inglizzabon davlatlar qatorida O'zbekistonda keng miqyosda tilshunoslik fanlarida



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu strategiyadan unumli, to'g'ri va barcha jihatlarini tushungan holda dars jarayonlarida qo'llasa, ta'lif sifatiga sezilarli o'zgarish olib kiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Iqlim\\_o%CA%BBzgarishi?utm\\_source=chatgpt.com](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Iqlim_o%CA%BBzgarishi?utm_source=chatgpt.com)
- <https://www.twinkl.com/teaching-wiki/peel-writing>
- [https://hydromet.uz/uz/node/609?utm\\_source=chatgpt.com](https://hydromet.uz/uz/node/609?utm_source=chatgpt.com)
- [https://tsuull.uz/sites/default/files/3.\\_filologiya.pdf](https://tsuull.uz/sites/default/files/3._filologiya.pdf)
- <https://www.britishcouncil.org/>